

**“TIQXMMI” MTU HUZURIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY
TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/06.11.2025.K/FM.10.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

SAPAYEV IBROXIM BAYRAMDURDIYEVICH

**pSi/-nCdS GETEROSTRUKTURALARINING TEMPERATURAGA
BOG‘LIQ XUSUSIYATLARINI KOMPLEKS FIZIK-KIMYOVIY
TAHLILI**

02.00.04 – Fizik kimyo

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по физика-
математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor (DSc) on physical and
mathematical sciences**

Sapayev Ibroxim Bayramdurdiyevich

pSi/n-CdS geterostrukturalarining temperaturaga bog'liq xususiyatlarini kompleks fizik-kimyoviy tahlili.....3

Сапаев Иброхим Байрамдурдыеви

Комплексный физико-химический анализ температурных особенностей гетероперехода pSi/n-CdS.25

Sapayev Ibrokxim Bayramdurdiyevich

Comprehensive physico-chemical analysis of the temperature-dependent properties of the pSi/n-CdS heterojunction.47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**“TIQXMMI” MTU HUZURIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY
TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/06.11.2025.K/FM.10.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SAPAYEV IBROXIM BAYRAMDURDIYEVICH

**pSi/-nCdS GETEROSTRUKTURALARINING TEMPERATURAGA
BOG‘LIQ XUSUSIYATLARINI KOMPLEKS FIZIK-KIMYOVIY
TAHLILI**

02.00.04 – Fizik kimyo

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.DSc/FM 315 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.ifar.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida(www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Jamoliddin Inotullayevich Razzokov**
Kimyo fanlari doktori

Rasmiy opponenlar: **Ulug'bek Alisherovich Shaislamov**
Fizika-matematika fanlari doktori

Bahrom Toshmirza o'g'li Abdulazizov
Fizika-matematika fanlari doktori

Izzatillo Nuritdinov
Fizika-matematika fanlari doktori

Yetakchi tashkilot: Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Dissertatsiya himoyasi "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.03/06.11.2025.K/FM.10.09 raqamli Ilmiy Kengashning 2026 yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy 39A., Tel. (+99871) 237-09-61; faks (+99871) 237-09-62; e-mail: info@ifar.uz).

Dissertatsiya bilan Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy 39A, FATI. Tel. (+99871) 237-09-61).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2026 yil "____" _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

O.N. Ro'zimurodov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash raisi o'rinbosari, kimyo fanlari doktori, professor

E.X. Karimbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash kotibi, fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

U.B. Xalilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida yangi turdagi optoelektron qurilmalarni yaratish hamda injeksion fotodiodlarni (IFD) takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. IFDlar hozirgi vaqtda optik aloqa tizimlari, sensor texnologiyalar, tibbiy diagnostika va quyosh energetikasi sohalarining muhim elementi sifatida qaralmoqda. Xalqaro tadqiqot markazlarining tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda fotodiodlarning jahon bozori hajmi 8,7 mlrd AQSH dollaridan oshgan bo'lib, 2026 yilga borib 14 mlrd dollardan ortishi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati esa 8,5 % atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bu esa mazkur qurilmalarning texnologik va iqtisodiy ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Fotopriyomnik qurilmalariga tezkorlik, fotosezgirlik va harorat barqarorligi bo'yicha talablar kuchayib borayotgan sharoitda 0,4–1,1 mkm spektral diapazonda va –60 dan +150 °C gacha bo'lgan haroratlarda ishlay oladigan yuqori samarali IFDlarni yaratish dolzarb ilmiy-texnik vazifa hisoblanadi.

So'nggi yillarda IFDlarning bazaviy sohasi parametrlari ularning elektr va fotoelektr xususiyatlariga ta'sirini o'rganishga alohida ilmiy qiziqish ortmoqda. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bazaviy soha kengligini 0,2–5 mkm oralig'ida va legirlovchi aralashmalar konsentratsiyasini 10^{15} – 10^{18} sm^{-3} diapazonda o'zgartirish fotosezgirlik koeffitsientini 30–60 % ga oshirish hamda qorong'u tokni 3–5 baravarga kamaytirish imkonini beradi. Biroq mavjud texnologik jarayonlar mazkur parametrlarni yetarli darajada boshqarishni ta'minlamayotgani sababli, fotodiodlarning kvant samaradorligi amaliy sharoitda 70–75 % bilan cheklanmoqda, holbuki nazariy jihatdan 90 % dan yuqori qiymatlarga erishish mumkin. Shu bois IFDlarda fizik jarayonlarni chuqur o'rganish, bazaviy soha parametrlarini optimallashtirish usullarini ishlab chiqish, texnologik yechimlarni takomillashtirish hamda CdS/Si geterotuzilmalari asosidagi fotodiodlarning spektral xususiyatlarini kompleks tahlil qilish o'zining yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yarimo'tkazgich qurilmalar sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar natijasida yuqori samarali foto- va yorug'lik diodlarini yaratish bo'yicha muhim natijalarga erishilgan. Geterotuzilmali fotodiodlarning funksional xususiyatlarini optimallashtirish natijasida ularning 0,4–1,1 mkm diapazondagi samaradorligi oshirildi, radiatsion va ultratovush ta'siri qo'llanilishi esa oqish toklarini 3–5 baravarga kamaytirish va fotosezgirlikni 30–60 % ga oshirish imkonini berdi. Respublikani rivojlantirish strategiyasiga muvofiq ilmiy yutuqlar va innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish ustuvor vazifa hisoblanadi, bu esa yarimo'tkazgich geterotuzilmalarida elektron jarayonlarni tadqiq etishning dolzarbligini yanada oshiradi. CdS va Si asosida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ko'p to'siqli tuzilmalarda bazaviy soha parametrlarini optimallashtirish, jumladan, yuqori qarshilikli kompensatsiyalangan n-CdS ($\rho = 10^8$ – 10^{10} $\text{Om}\cdot\text{sm}$) qatlamidan foydalanish n⁺CdS–nCdS–nSi va n⁺CdS–nCdS–pSi geterotuzilmalarida qurilmalarning fotosezgirliги va harorat barqarorligini –60 dan +150 °C gacha bo'lgan oraliqda ta'minlashga xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur geterotuzilmalar asosida ichki kuchaytirishga ega injeksion fotodiodlarni yaratish

optoelektronika sohasini rivojlantirish uchun dolzarb va amaliy ahamiyatga ega ilmiy masaladir.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining davlat ilmiy-texnologik siyosatida belgilangan ustuvor vazifalarni amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni (ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirishga oid), 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son Qarori (fizika sohasida ta‘lim va ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish to‘g‘risida) hamda 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-son Qarori (Fanlar akademiyasi ilmiy faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish to‘g‘risida) bilan belgilangan vazifalarga mos ravishda olib borilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalar rivojlanishining III. «Energetika, energiya va resurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozlikni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi:

So‘nggi o‘n yilliklarda yarimo‘tkazgich geterotuzilmalari sohasidagi xalqaro tadqiqotlar fotoelektr qurilmalar va fotodetektorlar samaradorligini oshirishga, xususan, nanostrukturali CdS/Si tizimlaridan foydalanish orqali erishishga qaratilgan. Nanostrukturalar, jumladan nanoyo‘llar (nanowires, NWs) va nanostajlar (nanorods, NRs) qo‘llanilishi tekis qatlamlarga nisbatan tushayotgan yorug‘lik qaytishini 20–40 % ga kamaytirish hisobiga yorug‘lik yutilishini va zaryad tashuvchilar fotogeneratsiyasini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi (AL-Hilo va boshq., 2014; Alkallas va boshq., 2023).

Kanmaz (2023) SCAPS dasturi yordamida CdS/p-Si/p+-Si va ZnO/CdS/p-Si/p+-Si geterotuzilmalarini sonli modellashtirishni amalga oshirdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bir qatlamli CdS geterotuzilmasining maksimal samaradorligi 20,30 % ni tashkil etdi, ZnO qo‘sh qatlam sifatida qo‘shilganda esa CdS qatlami qalinligi 40–80 nm diapazonda bo‘lganda samaradorlik 21,82 % gacha oshdi. Bu natijalar energiya aylantirish koeffitsientini oshirishda qatlam qalinligi va tarkibini optimallashtirish muhimligini ko‘rsatadi.

Cai va boshq. (2019) dopantsiz p-Si/CdS/ITO quyosh elementlarini ishlab chiqib, 4 sm² maydonli namunalarda uchun 12,29 % samaradorlikka erishdilar. Ishda 50–60 nm qalinlikdagi CdS qatlamini DC-magnetron purkash usuli bilan hosil qilib, keyin termik kuydirish amalga oshirilgan. Bu usul energiya sarfini kamaytirish va yuqori haroratli n+ qatlam legirlanishini bartaraf etish imkonini berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kuydirish haroratini to‘g‘ri tanlash fototokni 15–20 % ga oshiradi, ochiq zanjir kuchlanishi (V_{oc}) esa 0,05–0,07 V ga ortadi. Bu esa sifatli geterokontakt hosil qilishda termik ishlov berish muhimligini ko‘rsatadi.

Fotodeteksiya sohasida Alkallas va boshq. (2023) p-Si (111) yuzasida CdS nanoyo‘llarini hosil qilish uchun suyuq muhitda lazer ablyatsiyasi usulini taklif etdilar. Olingan qurilmalarda to‘g‘ri yo‘nalishdagi tokning chiziqli xarakteristikasi, 4,5 μ A qorong‘u tok qiymati va 15–30 Vt/sm² yoritilishda 580–690 μ A gacha fototok

qayd etildi. Geterotuzilma ideal koeffitsienti 3,1–3,3 ni tashkil etdi, bu interfeys sifati yuqori va zaryad tashuvchilar samarali ajralishini ko'rsatadi.

AL-Hilo va boshq. (2014) Core-Shell turidagi Si/CdS nanoyo'l geterotuzilmasini ishlab chiqdi. Bunda n-CdS nanozarrachalari kimyoviy vannada cho'ktirish (CBD) usuli bilan vertikal yo'naltirilgan p-Si nanoyo'llarga o'tkazilgan. SEM tahlili CdS ning Si nanoyo'llarga yuqori yopishishini tasdiqladi, XRD va UV-Vis spektroskopiya esa wurtzit kristall tuzilma va 2,1–2,4 eV to'g'ri taqiqlangan zona mavjudligini ko'rsatdi. Qo'shimcha ravishda Al bilan legirlangan ZnO (AZO) shaffof elektrod sifatida qo'llanganda fototok 50 % gacha oshdi. Bu nanostrukturalar va shaffof elektrodlar kombinatsiyasining qurilma samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Xorijiy tadqiqotlar tahlili quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi: CdS/Si geterotuzilmalarida nanoyo'l va nanostajlardan foydalanish yorug'lik qaytishini 20–40 % ga kamaytiradi va zaryad tashuvchilar fotogeneratsiyasini oshiradi; CdS va ZnO qatlamlarining optimal qalinligi (40–80 nm) quyosh elementlari samaradorligini bir qatlamli tuzilmalarga nisbatan 1–2 % ga oshiradi; CBD, PLAL va DC-magnetron purkash kabi cho'ktirish usullari CdS kimyoviy tozaligi va morfologiyasini nazorat qilish imkonini beradi, bu esa barqaror fototok va past qorong'u tok uchun muhim; Si nanoyo'llar va CdS nanozarrachalar asosidagi Core-Shell geterotuzilmalar tekis CdS/Si qatlamlarga nisbatan fototokni 50 % gacha oshirish hamda fotodiodlarning spektral xarakteristikasini boshqarish imkonini beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi o'n yilliklarda optoelektronika sohasidagi tadqiqotlar asosan Si/CdS geterotuzilmalarida elektron jarayonlarni o'rganish va ularning fotoelektrik xususiyatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ayniqsa, p- yoki n-Si tagliklariga yotqizilgan yupqa qatlamli CdS asosidagi injeksion fotodiodlar (IFD) istiqbolli hisoblanadi, ular cho'zilgan bazali diodlar turiga kiradi. Bunday qurilmalarning dastlabki prototiplari V.I. Stafeev rahbarligida yaratilgan bo'lib, bu Si/CdS tuzilmalarida zaryad tashuvchilarning injeksiya va rekombinatsiya mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi. Zamonaviy tadqiqotlar doirasida CdS qatlami qalinligini va Si taglikdagi legirlovchi markazlar konsentratsiyasini aniq boshqarish orqali spektral sezgirlikni sozlash imkonini beruvchi yangi turdagi fotopriyomnik tuzilmalar taklif qilingan. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, CdS qatlamining optimal qalinligi 40–80 nm ni, Si dagi legirlovchi markazlar konsentratsiyasi esa 10^{15} – 10^{17} sm⁻³ ni tashkil etadi.

Bu esa 15–30 Vt/sm² yoritilishda fototokni 580–690 μ A gacha oshirish va qorong'u tokni 4–5 μ A gacha kamaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, CdS bilan qoplangan nanostrukturali Si-NWs dan foydalanish yorug'lik yutilishini 20–40 % ga oshiradi, bu esa tekis qatlamlarga nisbatan fotodiodlar samaradorligini 1–2 % ga oshishiga olib keladi. CdS/Si turidagi yarimo'tkazgich birikmalarining fizik va fizik-kimyoviy xossalari chuqur o'rganilganiga qaramay, ular asosidagi injeksion fotodiodlar hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Xususan, CdS/Si yupqa qatlamli tuzilmalarni kristallografik yo'nalishini va interfeys sifatini nazorat qilgan holda shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish masalasi hanuz to'liq hal etilmagan. Bu esa fotodiodlarning ichki kuchaytirishini

oshirish va spektral xarakteristikasini boshqarish uchun muhim hisoblanadi. Mazkur bo‘shliqlar yuqori samarali optoelektron qurilmalarni yaratishga qaratilgan keyingi nazariy va eksperimental tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlarni ochib beradi.

Zhang va Yu a-Si:H yupqa qatlamlarni kremniy ustiga joylashtirish orqali yengil va mexanik jihatdan barqaror 3D radial optoelektron qurilmalarni ishlab chiqqan¹. Piazza va hamkasblari MBE usuli bilan o‘stirilgan GaAs radial p–n o‘tishlarning elektr xususiyatlarini EBIC mikroskopiyasi orqali tahlil qilgan va aktiv yuzaning 38 barobar oshganini aniqlagan³. Cabrera-España va Rahman simulyatsiyada radial p-n o‘tishlarda samaradorlik planar strukturalarga nisbatan yuqoriligini ko‘rsatgan. Prashant va hamkasblar ITO/TiO₂ kontaktlar yordamida nanoo‘lchamli radial p-n strukturalarning samaradorligini oshirish usullarini o‘rganishgan⁴.

O‘zbekistonda diffuziya texnologiyasi asosida baza sohasi kambag‘allashgan kremniyli termorezistorlar ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M.K. Bahadirxanov, S. Zaynobiddinov, B. Egamberdiev, M. Tashmetov tomonidan olingan natijalarga ko‘ra, ushbu materiallarning solishtirma qarshiligi 10⁴–10⁵ Om·cm diapazonda bo‘lib, ular 5–10 V kuchlanishlarda barqaror ishlashi aniqlangan. Shuningdek, p–n o‘tishli termodatchiklar yaratish bo‘yicha R.A. Mo‘minov va hamkasblari tomonidan muhim ilmiy natijalar olingan. Biroq, baza sohasi kambag‘allashgan radial strukturalarda keng temperatura diapazonida fizik jarayonlar yetarli darajada o‘rganilmagan hamda to‘liq bo‘lmagan ionlanish jarayonlarining ta’siri kompleks tarzda hisobga olinmagan. Shu bilan birga, radial p–n va p–i–n o‘tishli strukturalarda geometrik parametrlarning ta’siri yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi:

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining “Resurslarni tejoychi texnologiyalar” va “Fundamental fizika hamda fizik kimyo” laboratoriyalarining tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot rejalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot maqsadi: Dissertatsiya ishining asosiy maqsadi p-Si/n-CdS geteroo‘tishli struktura asosidagi injeksion fotoqabulqilgichlarda elektron jarayonlar va fizik-kimyoviy xususiyatlarini, jumladan, geometrik parametrlar, CdS yupqa qatlamining qalinligi va konsentratsiyasi, turli harorat rejimlari hamda ultratovushning tok tashish mexanizmlariga ta’sirini tizimli aniqlash va kompleks tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Mazkur dissertatsiya doirasida p-Si/n-CdS geterotuzilmasi asosida turli haroratlarda va ultratovush ta’sirida modellashtirish,

¹ Zhang, S., & Yu, L. (2024). 3D radial junctions for robust and flexible optoelectronics. *Advanced Optical Materials*, 12(2), 2302121. <https://doi.org/10.1002/adom.202302121>

³ P Cabrera-España, F. J., Kamuka, A., Khaled, A., Hameed, M. F. O., Obayya, S. S. A., & Rahman, B. M. A. (2024). Optical and electrical characterization of solar cell with nanowires mimicking antireflection coating layers considering axial and radial PN junctions. *Energy Science & Engineering*, 12(4), e1722. <https://doi.org/10.1002/ese3.1722>

⁴ Prashant, D. V., Agnihotri, S. K., & Samajdar, D. P. (2022). Efficient GaAs nanowire solar cells with carrier selective contacts: FDTD and device analysis. *Materials Science in Semiconductor Processing*, 141, 106410. <https://doi.org/10.1016/j.mssp.2021.106410>

eksperimental hamda nazariy hisoblashlarni amalga oshirish orqali quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

p-Si/n-CdS geterootishining morfologiyasi va kristall tuzilishini SEM (skanerlovchi elektron mikroskopiya) va XRD (rentgen difraksiyasi) usullari yordamida o'rganish, shuningdek, past haroratlarda aralashmalarning to'liq ionlashmasligi hisobga olingan holda elektrofizik taqsimotlarni tahlil qilish;

yuzaki zaryad holati yuzaga keladigan CdS qatlamining minimal qalinligini hamda injeksion rekombinatsiya jarayoni namoyon bo'ladigan maksimal qalinligini aniqlash;

qalinligi 400 nm bo'lgan CdS yupqa yupqa qatlamlarining chiziqli va nochiziqli optik xususiyatlarini, jumladan to'yinuvchi yutilish (SA), ikki fotonli yutilish (2PA) va mumkin bo'lgan teskari to'yinish (RSA) jarayonlarini ularning morfologiyasi va kristallit tuzilishiga bog'liq holda miqdoriy tavsiflash, optik cheklagichlar va rejimli sinxronlashgan lazerlarda qo'llash imkoniyatlarini aniqlash;

tashqi omillarning tanlangan tuzilmaning volt-amper xarakteristikalariga ta'sirini tahlil qilish va uning optimal parametrlarini belgilash;

p-Si/n-CdS tuzilmasida baza va emitter konsentratsiyasining samaradorlik hamda injeksion tok mexanizmlariga ta'sirini o'rganish;

harorat va ultratovush ta'sirining p-Si/n-CdS tuzilmasining C-V (sig'im-kuchlanish) xarakteristikalariga ta'sirini tadqiq etish;

p-Si/n-Cd_{1-m}Zn_mS geterootishlarining optoelektron xususiyatlarini tarkib va haroratni hisobga olgan holda modellashtirish, fotopriyomnik va fotoelektron qurilmalar parametrlarini optimallashtirish;

aralashmalarning to'liq ionlashmasligi effektini hisobga olgan holda p-Si/n-CdS geterootishlarining past haroratdagi elektrofizik va optik xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti; injeksion fotodiodlar yaratishda ishlatiladigan p-Si/n-CdS geterostrukturalari va ularning elektro-fizik xossalari, jumladan, tok o'tishi, kontakt jarayonlari, shuningdek harorat va ultratovush ta'sirining ularning xossalari ta'siri.

Tadqiqot predmeti: p-Si/n-CdS geterostrukturalaridagi tok o'tish mexanizmlari, shuningdek turli omillarning (harorat, ultratovush ta'siri, struktura geometriyasi) ularning fotoelektrik xossalari va spektral sezgirligiga ta'siri. Tadqiqotda injeksion rekombinatsiya jarayonlari, kontakt qarshilik shakllanishi va injeksion fotodiodlarning ish barqarorligi, shuningdek bu omillarning qurilmalar samaradorligiga ta'siri o'rganiladi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqot usullari nazariy modellashtirish va eksperimental usullarni o'z ichiga oladi. Nazariy qismda analitik va sonli usullar, jumladan p-Si/n-CdS geterostrukturalarining elektro-fizik xossalari tahlil qilish uchun kompyuter modellashtirish qo'llaniladi. Eksperimental tadqiqotlar volt-amper (VAX), volt-farad (C-V) xossalari, shuningdek yorug'lik va qorong'ulik sharoitidagi volt-amper o'lchovlari orqali fotoelektrik xossalarni va tashqi omillar (harorat va ultratovush) ta'sirini baholash usullarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, namunalarni morfologik tadqiq qilish va ularning strukturasi tahlili uchun mikroskopiya usullari qo'llaniladi.

Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: Dissertatsiya ishida p-Si/n-CdS geterostrukturalarida elektron jarayonlar va tok o'tish mexanizmlari kompleks tarzda o'rganilgan. Natijada asosiy quyidagi xulosalar olingan:

kremniy asoslarida CdS yupqa qatlamlarini (5–200 nm) kvaziyopiq vakuum tizimida CdS kukunlarini cho'kiltirish usuli bilan shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bu qatlamlarning yuqori birxilligi, p-Si/n-CdS geterostrukturalarining elektro-fizik parametrlarining barqarorligi va qatlam qalinligi va strukturasi ta'sirini eksperimental tadqiq qilish uchun mosligini ta'minlaydi;

TCAD Sentaurus dasturiy kompleksida p-Si/n-CdS strukturasi fizik modeli yaratilgan va eksperimental tarzda kalibrlangan. Ushbu model teskari zonaning kengligini ($R^2 = 0,9793$) va volt-amper xossalarni ($R^2 = 0,9815$) yuqori aniqlik bilan tasvirlash imkonini beradi, bu elektro-fizik jarayonlarni raqamli modellashtirish uchun taklif qilingan yondashuvning ishonchliligini tasdiqlaydi;

400 nm qalinlikdagi CdS yupqa qatlamining ~ 24 nm o'lchamli kristallitlardan, 50–150 nm o'lchamli donalardan, 5–8 μm konqlomeratlardan tashkil topganligi va Cd:S stexiometrik nisbati $\approx 51:49$ ekanligi aniqlangan. Bu teskari zonaning kengligi $E_g \approx 2,33$ eV va yutilish koeffitsienti $\alpha \approx 5 \times 10^4 - 2 \times 10^5 \text{ cm}^{-1}$ ni ta'minlab, morfologiya va kristallit strukturasi bilan optik xossalar orasidagi miqdoriy bog'liqlikni belgilaydi;

$\lambda = 1030$ nm va 515 nm da OA Z-scan o'lchovlari shuni ko'rsatdiki, $I < 2 \times 10^{11} \text{ W/cm}^2$ da to'yingan yutilish dominant bo'ladi, $I > 3 - 5 \times 10^{11} \text{ W/cm}^2$ da esa ikki fotonli yutilish (2PA) paydo bo'ladi ($\beta_{2PA} \approx 4.7 - 8 \times 10^{-8} \text{ cm} \cdot \text{W}^{-1}$, to'yingan intensivlik $I_{\text{sat}} \approx 1.3 - 1.7 \times 10^{11} - 10^{12} \text{ W/cm}^2$), bu birinchi marta 400 nm qalinlikdagi CdS qatlamlarida SA, 2PA va mumkin bo'lgan RSA raqobatini aniq miqdoriy tasvirlash imkonini beradi;

300 K da teskari tok sezgirligi p-Si bazasining konsentratsiyasiga nisbatan deyarli 10 marta yuqori ekanligi aniqlangan, bu esa kremniy bazasi parametrlarining fotodiod ish xossalarini shakllantirishda asosiy rolini ko'rsatadi;

eksperimental va raqamli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, cho'kiltirilgan n-Cd_mZn_{1-m}S qatlamlari donali morfologiyaga ega ($\sim 179,5$ nm qiyshiq sirt, $20 \times 20 \mu\text{m}^2$), teskari zonaning kengligi $\approx 2,6$ eV dan $> 3,8$ eV gacha boshqariladi; yetarli ionizatsiyalanmagan donorlar effekti depletsiya zonasini kengaytiradi va maksimal elektr maydonini taxminan 3,5 marta kamaytiradi;

$S_{\text{int}} = 2,8 \cdot 10^4$ oq yorug'likda, $E = 0,1$ lux; spektral fotosezgirlik $S_\lambda \approx 2,3 \cdot 10^4 \text{ A/W}$, $\lambda = 0,625 \mu\text{m}$, $P = 10 \mu\text{W/cm}^2$, bu fototokning ichki kuchayishini interfaz qatlam va n-CdS da teshiklar akkumulyatsiyasi orqali ko'rsatadi;

n-CdS/p-Si chegarasida $\psi_s = 0,04$ eV da manfiy zaryadlangan sirt holatlarining shakllanishi aniqlangan, ular tashuvchilarni injeksiyalashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, fotosezgirlikni o'zgartiradi va elektr xossalarni optimallashtirishda muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Tadqiqot jarayonida p-Si/n-CdS injeksion fotodiodlaridagi tok o'tish mexanizmlari ularning texnologik (legirlash konsentratsiyasi $10^{15} - 10^{18} \text{ cm}^{-3}$, CdS

qatlam qalinligi 5–400 nm) va geometrik parametrlariga (yupqa qatlam radiusi 0,3–2,5 μm , teskari zonaning uzunligi 1–10 μm) bog‘liqligi aniqlangan. Ushbu bog‘liqlik asosida qurilmalarning ishchi tokini 35–50 % ga kamaytirish va quvvat sarfini 30–45 % ga qisqartirish imkonini beruvchi past quvvatli fotodiodlarni optimallashtirish usuli ishlab chiqildi.

TCAD Sentaurus dasturiy muhitida modellashtirish natijalariga ko‘ra, p–n va p–i–n strukturalarda kuchlanish (0–5 V), temperatura (–50...+150 °C) va legirlash darajasi (10^{15} – 10^{18} cm^{-3}) o‘zgarishi zaryad tashuvchilar zichligini 1,8–2,6 barobar, elektr maydonining maksimal qiymatini esa $(3–6)\times 10^5$ V/cm diapazonida boshqarish imkonini beradi. Radial p-Si/n-CdS strukturalarning planar strukturalarga nisbatan sezuvchanligi 1,5–2,2 barobar yuqori va quvvat sarfi 25–40 % ga past ekanligi eksperimental va hisoblash natijalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: matematik modellar qat‘iy hisoblashlarga asoslangan bo‘lib, nazariy natijalar tajribaviy ma‘lumotlar bilan sifat va miqdoriy jihatdan mos kelishi orqali tasdiqlangan. Eksperimental natijalar bir-birini to‘ldiruvchi turli o‘lchash va tahlil usullari yordamida tekshirilgan. Shuningdek, yarimo‘tkazgichlar uchun taqiqlangan soha kengligi modelimizdagi hisoblangan natijalar bilan solishtirilib, nisbiy xatolik 3 % dan oshmagan. Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,97$ dan yuqori.

Ilmiy va amaliy ahamiyati: dissertatsiyada p-Si/n-CdS geterostrukturalarida elektron o‘tish jarayonlari chuqur tahlil qilinib, to‘liq bo‘lmagan ionlanish effektlarini hisobga oluvchi yangi analitik ifodalar ishlab chiqildi. Bu esa temperatura (–60...+200 °C), qatlam qalinligi (5–400 nm) va legirlash darajasi (10^{15} – 10^{18} cm^{-3}) o‘zgarishlarining elektron jarayonlarga ta‘sirini miqdoriy baholash imkonini berdi.

Ushbu natijalar asosida ishlab chiqilgan modellar yuqori sezgirlikka ega fotodetektorlar, sensorlar va past quvvat talab qiluvchi foton qurilmalarni loyihalashda qo‘llanilib, qurilmalar sezgirligini 1,7–2,3 barobar, energiya samaradorligini 30–45 % ga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, natijalar nanoelektronika va optoelektronika sohalarida yuqori samarali va raqobatbardosh qurilmalarni ishlab chiqish uchun muhim amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: pSi/n-CdS geterostrukturalarining temperaturaga bog‘liq xususiyatlarini kompleks fizik-kimyoviy tahlili bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

p-Si/n-CdS geterostrukturalarining temperaturaga bog‘liq xususiyatlarini kompleks fizik-kimyoviy tahlil qilish natijalari asosida, p-Si/n-CdS geterostrukturalarining elektrofizik xususiyatlariga legirlanish darajasi va temperaturaning ta‘sirini hisobga oluvchi fizik modellar Synopsys Sentaurus TCAD dasturiy majmuasi yordamida ishlab chiqildi. Shu asosida “p-Si/n-CdS geterostrukturalarning I–V xarakteristikasini yuqori aniqlikda o‘lchash uchun dasturiy ta‘minot” (Guvohnoma № DGU 55079, 04.10.2025) hamda “C–V xarakteristikasini keng temperaturalar diapazonida yuqori aniqlikda o‘lchash uchun dasturiy ta‘minot” (Guvohnoma № DGU 55080, 04.10.2025) ishlab chiqilib, tegishli guvohnomalar olindi.

Olingan ilmiy natijalar Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti 60720600 — "Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (yarimo'tkazgichlar va lazer texnologiyasi)" bakalavriat ta'lim yo'nalishi doirasida "Yarimo'tkazgichlar fizikasi" va "Yarimo'tkazgichli qurilmalarni modellashtirish" fanlarini o'qitish jarayonida joriy etildi (17.03.2026, dalolatnoma). Natijada, talabalarning yarimo'tkazgichli qurilmalarni modellashtirish bo'yicha amaliy ko'nikmalari 20% ga oshgan va hisoblash aniqligi 3 baravar yaxshilangani aniqlandi.

p-Si/n-CdS injeksiyon fotodiodlarining elektr va fotoelektr xususiyatlariga ultratovushli ishlov berish ta'siri o'rganildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ultratovushli ishlov berish heterostrukturaldagi sirtiy holatlar zichligini kamaytirib, nuqsonlarni qayta qizdirish orqali fotodiodlarning spektral va integrallashgan sezgirligini oshiradi. Ushbu yondashuv xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilgan (Advances in Materials Science and Engineering, 2021, Article 8836368; IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 614, 012027; Superlattices and Microstructures, 117, 173–188; Journal of Semiconductors, 37(12), 122002; Journal of Applied Physics, 123(16), 161573).

Si asosga yupqa qatlamli geterostrukturalarni vakuum sharoitida (10^{-3} Pa) issiq bug'lanish usuli bilan o'stirish usuli ham xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilgan (Journal of Alloys and Compounds, 1040, 183530; East European Journal of Physics, (3), 325–335; Chalcogenide Letters, 22(8), 753–764).

Ultratovush orqali ishlov berish orqali p-Si-n-CdS geterostrukturalarning sirtiy holatlar zichligi kamayishi, bu esa fotodiodlarning spektral ($S_{\lambda} = 2.3 \cdot 10^4$ A/W) va integrallashgan ($S_{\text{int}} = 2.8 \cdot 10^4$ A/lm) sezgirligini oshiradi. Drift va diffuziya qarshi oqimlarining kompensatsiyasi fotosezgirlik va teskari tok-volt xususiyatlariga yangi fizik effektlar kiritadi. Bu yondashuv xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilgan (East European Journal of Physics, (3), 325–335; Journal of Nanoelectronics and Optoelectronics, 9(6), 799–800; Chalcogenide Letters, 22(8), 753–764; Ceramics International, 42(6), 6601–6609; Journal of Materials Science: Materials in Electronics, 18(7), 494–500).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish chop etilgan, 20 ta maqola OAK tavsiya etgan nashrlarda, shundan 16 tasi Scopus indeksli xorijiy jurnallarda, 4 tasi mahalliy jurnallarda; 9 ta tezis xalqaro va mahalliy konferensiyalarda; 2 ta EHM dasturi intellektual mulk agentligi tomonidan guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya matni 200 betdan iborat.

DISSERTATSIYA ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurligi asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari aniqlangan. Ishning Respublika O'zbekiston fan va texnologiyalarni

rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi oʻrnatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Natijalar joriy etilishi, ishning sinovdan oʻtkazilishi hamda dissertatsiya tuzilmasi va hajmi haqida qisqacha maʼlumot berilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobida “Injeksiya fotosensorli strukturalarini qoʻllash boʻyicha zamonaviy holat, dolzarb muammolar va tadqiqot vazifalarini tahlil qilish (adabiyot sharhi)” mavzusida injeksiya fotosensorli strukturalarni ishlab chiqish va tadqiq etish boʻyicha zamonaviy ilmiy yondashuvlar tizimli tarzda umumlashtirilgan. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning joriy holati keng qamrovli tahlil qilingan, injeksiya fotosensorli qurilmalarning amaliy qoʻllanilishi sohalari va turli zaryad tashuvchilari tashish va kuchaytirish mexanizmlari sharoitida ularning ishlash xususiyatlari koʻrib chiqilgan. Tashqi omillarning, jumladan harorat va ultratovush taʼsirining yarimoʻtkazgichli strukturalarning elektrofizik xususiyatlariga taʼsiriga alohida eʼtibor qaratilgan. A^2B^6 va A^3B^5 guruhlaridagi yarimoʻtkazgich birikmalari asosida yaratilgan zamonaviy injeksiya fotodiodlar, mavjud injeksiya fotodiodli strukturalar modellari va ularning matematik modellashtirishning joriy holati koʻrib chiqilgan. Oʻtkazilgan tahlil asosida asosiy hal qilinmagan ilmiy-texnik muammolar aniqlangan, keyingi tadqiqot yoʻnalishlari belgilangan, shuningdek, vazifa qoʻyilishi va tadqiqot obyekti uchun asosiy talablar asoslangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida “Kremniy/kadmiy sulfidi geterostrukturalari asosida injeksiya fotosensorli strukturalarni shakllantirish usullari va ularning asosiy parametrlari” mavzusida geterostrukturalarni olish texnologik usullari taqdim etilgan, ularning asosiy parametrlari va shakllanish xususiyatlari oʻrganilgan. Hozirgi vaqtda yarimoʻtkazgichli elektron qurilmalarni modellashtirish faol rivojlanmoqda va maxsus dasturiy taʼminotlar spektri kengaymoqda. Bunday dasturlar qurilmalarning geometriyasini belgilash va mikro- va nano-darajalarda elektrofizik va optik jarayonlarni oʻrganish imkonini beradi. Ushbu strukturalar TCAD Sentaurus dasturi yordamida modellashtirilgan. Qurilmalar geometriyasi, baza va emmitter sohalari, kontaktlar va tarmoq Structure Editor modulida shakllantirilgan, bu strukturada parametrlarni aniqlik va hisoblash xarajatlari optimalligi bilan taqsimlash imkonini bergan. Materiallar tayinlash, fizik modellar va xususiyatlarni hisoblash Device modulida bajarilgan, bu yerda chegaraviy shartlar, fizik modellar, raqamli yechim usullari va hisoblash rejimlari belgilangan. Modellashtirishning asosiy bosqichlari va kirish/chiqish parametrlar 1-rasmda keltirilgan.

Oʻrganilgan asosiy strukturalarda – p–n va p–i–n oʻtishlarda – tok tashish mexanizmlari yarimoʻtkazgich qurilmalarda tavsiflash imkonini beruvchi drift-diffuziya transport modeli qoʻllanilgan.

Ushbu model doirasida Puasson tenglamasi, elektron va teshiklar uchun uzluksizlik va tok zichligi tenglamalari sonli usulda, chekli elementlar metodi yordamida yechilgan, bu esa elektrofizik jarayonlarni aniq tavsiflash imkonini bergan. Yuqori samarali optoelektron va fotoelektron qurilmalar materiali sifatida

CdS tanlangan. Volt-amper xususiyatlari Keithley 2400 qurilmasi yordamida o‘lchangan va modellashtirish natijalari bilan yaxshi moslik ko‘rsatgan.




1-rasm. Modellashtirish bosqichlari

Modellashtirilgan pSi/nCdS struktura omik kontaktlar bilan shakllantirilgan (In/p-Si, Al/n-CdS). p-Si (100) asoslar ishlatilgan, ularning o‘ziga xos qarshiligi 1–10 $\Omega \cdot \text{sm}$ va qalinligi taxminan 500 μm bo‘lgan. CdS yupqa qatlamlar belgilangan qalinlik diapazonlarida shakllantirilgan. CdS II–VI guruh birikmalarining tipik vakili sifatida fotodiodlar, quyosh elementlari va nurlanish detektorlarda keng qo‘llaniladi. Yupqa qatlamlar optimallashtirilgan harorat va texnologik rejimlarda termovakuum bug‘latish, ALD, CVD va PECVD usullari yordamida olinadi. Getero-o‘tishlar CdSni p-Si ustiga cho‘kishi orqali va keyinchalik omik kontaktlar yaratish bilan shakllantiriladi. CdS II–VI birikmalarining elektrofizik va optik xususiyatlarini o‘rganish uchun model materiali sifatida ishlatiladi va uning kremniy bilan mosligi istiqbolli pSi/nCdS geterostrukturalarini shakllantirish imkonini beradi. Cho‘kkan CdS qatlamlari XRD va EDS usullari yordamida tavsiflangan. CdS/Si sifatli interfeysini shakllantirishdagi asosiy qiyinchilik – kristall panjaraning parametrlari va materiallarning issiqlik kengayish koeffitsiyentlaridagi farqdir. CdS epitaksiya yupqa qatlamlar asos va manba optimallashtirilgan haroratlarda vakuum sharoitida o‘sdirilgan, bu qalinlikning bir xilligi va nazoratli dopirovka uchun amalga oshiriladi. Belgilangan geometriyaga ega shottki va omik kontaktlar shakllantirilgan. Tok xususiyatlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri siljish parametrlari, ideal koeffitsiyent va kontakt effektlarini kalibrlash eksperimental VAX bilan modellashtirish natijalarini solishtirish orqali amalga oshiriladi.

2-rasmda pSi/nCdS getero-o‘tishining struktura va xususiyatlari ko‘rsatilgan. 2D ko‘rinish (a) o‘tish geometriyasini namoyish qiladi, bu esa zaryad tashuvchilarini samarali ajratishni ta‘minlaydi.


Rentgen tahlili (b) CdS kristall strukturasi va uning II–VI guruh yarimo‘tkazgich standartlariga mosligini tasdiqlaydi. Energiya dispersiyali spektroskopiya (c) elementlarning bir xillik taqsimlanishini va aniq dopirovkani

ko'rsatadi, bu esa strukturadagi elektrofizik xususiyatlarning barqarorligini ta'minlaydi.



2-rasm. Model namunasi a) pSi/nCdS getero-o'tishining 2D ko'rinishi; b) rentgen difraksiya (XRD) metodi bilan tahlil; c) energiya dispersiyali spektroskopiya (EDS) metodi bilan spektral tahlil.


Past kuchlanishlarda ($V < 0,3 \text{ V}$) Si/CdS getero-o'tish orqali oqim siyraklashgan hududdagi rekombinatsiya jarayonlari bilan belgilanadi.



3-rasm. Tadqiq qilingan elektron elementning volt-ampere xususiyatini (I-V xususiyatlari) o'lchash sxemasi

Ushbu diapazonda oqim kichik bo'ladi va kuchlanish bilan eksponent tarzda oshadi. O'rta kuchlanishlarda ($0,3 \text{ V} < V < 0,5 \text{ V}$) o'tish rejimi kuzatiladi, bunda rekombinatsiya va drift-diffuziya transporti birgalikda ishlaydi. Ushbu hududdagi oqim oshadi. Yuqori kuchlanishlarda ($V > 0,5 \text{ V}$) drift-diffuziya mexanizmi to'liq ustunlik qiladi. Ushbu rejimda oqim maksimal darajaga yetadi va I-Vning yarim-logarifmik grafikida deyarli chiziqli bog'lanishni namoyish qiladi, bu yarimo'tkazgichlarda klassik tashish modellariga mos keladi. Shunday qilib, Si/CdS getero-o'tishida aniq hududlar ajratilishi kuzatiladi: past kuchlanishlarda oqim rekombinatsiya tomonidan boshqariladi, yuqori kuchlanishlarda esa drift-diffuziya asosiy rol o'ynaydi.

Bu nafaqat eksperimental ma'lumotlar, balki sonli modellashtirish natijalari bilan ham tasdiqlanadi. Yuqori R^2 qiymatlari va ideal koeffitsiyent getero-o'tish strukturadagi elektrofizik jarayonlarni modelning to'g'ri tavsiflashini ko'rsatadi va shunga o'xshash getero-o'tish xususiyatlarini prognoz qilishda ishlatilishi mumkin.



4-rasm. a) pSi/nCdS getero-o'tishining 300 K haroratidagi volt-ampér xususiyati; b) Ta'qiqlangan zona kengligining haroratga bog'liqligi

Si/CdS getero-o'tishining eksperimental va modellashtirilgan VAH (volt-ampér xususiyatlari) solishtirilgan. Olingan qiymatlar va ideal koeffitsiyent modelning eksperiment bilan yuqori mosligini va tanlangan parametrlarning to'g'riligini tasdiqlaydi. p-Si/n-CdS elektrofizik xususiyatlari 77–400 K harorat oralig'ida I–V va C–V metodlari yordamida o'rganilgan, o'lchash aniqligi taxminan $\pm 0,5\%$ ni tashkil qilgan. Si va CdS ning ta'qiqlangan zona kengligining haroratga bog'liqligi 100–500 K oralig'ida tadqiq qilingan. Modellashtirish eksperiment bilan yaxshi mos keladi: Si uchun 1,12 eV, CdS uchun 2,4 eV (qiymatlar kiritiladi).

Si uchun ta'qiqlangan zona kengligi 1,12 eV (300 K) dan 1,07 eV (400 K) gacha kamayadi, CdS uchun esa 2,4 eV dan 2,38 eV gacha o'zgaradi. Modelning eksperimental ma'lumotlar bilan yuqori mosligi uning to'g'riligini va Si/CdS getero-o'tish parametrlarini keng harorat diapazonida aniq prognoz qilish imkonini tasdiqlaydi. Model to'g'ri kalibrlangan va tashqi omillar hisobga olingan taqdirda, hisoblash xatoligi 3% dan kamga tushirilishi mumkin.


Проведено сравнение экспериментальных и смоделированных ВАХ гетероперехода Si/CdS. Полученные значения $R^2 = 0,9714$ и коэффициент идеальности $n \approx 1,23$ подтверждают высокое согласие модели с экспериментом и корректность выбранных параметров. Электрофизические свойства p-Si/n-CdS исследовались методами I–V и C–V в диапазоне 77–400 K при точности измерений около $\pm 0,5\%$. Температурная зависимость ширины запрещённой зоны $E_g(T)$ для Si и CdS исследована в диапазоне 100–500 K. Моделирование хорошо согласуется с экспериментом: для Si $R^2 \approx 0,986$, для CdS $R^2 \approx 0,973$. При этом для Si E_g уменьшается с 1,12 эВ (300 K) до 1,07 эВ (400 K), а для CdS — с 2,4 эВ до 2,38 эВ. Высокая корреляция модели с экспериментальными данными подтверждает её адекватность и возможность точного прогнозирования параметров гетеропереходов Si/CdS в широком

температурном диапазоне. При корректной калибровке модели и учёте внешних факторов погрешность расчётов может быть снижена до менее 3 %.

$$\Delta E_C(T) = E_{C,Si}(T) - E_{C,CdS}(T) \quad (1)$$

1 va 2 ifodalar mos ravishda $E_C(T)$ o'tkazuvchan zonaning pastki chegarasini va $E_V(T)$ valent zonaning yuqori chegarasini temperaturaga bog'liqligini ifodalaydi.

$$\Delta E_V(T) = E_{V,Si}(T) - E_{V,CdS}(T) \quad (2)$$



5-rasm. Si/CdS geterostrukturasiining energiya zonasi

5-rasmda pSi/nCdS getero-o'tishining energiya diagrammasi ko'rsatilgan, u o'tkazuvchanlik darajalari, valent zonasi, ish funksiyalari va potensial to'siqlarni belgilaydi. Xona haroratida quyidagi parametrlar aniqlangan: (Si), Si ish funksiyasi — 0,9 eV, CdS — 0,7 eV, o'tkazuvchanlik zonasi farqi 0.49 eV, potensial to'siq 0.29 eV. Ushbu parametrlar zaryad tashuvchilar transportini belgilaydi: 0.9 eV elektronlarning tashilishini cheklaydi, 0.29 kontakt potensialini beradi, ish funksiyalari farqi (0,2 eV) ichki elektr maydonini hosil qiladi va elektronlarning diffuziyasini rag'batlantiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida "pSi/nCdS asosidagi geterostrukturalarda kontakt hodisalarini tahlil qilish" mavzusida kontaktlarni shakllanish jarayonlari, ularning elektr xususiyatlariga ta'siri va strukturalarda oqimlarning xususiyatlari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, elektrod materiali tanlovi pSi/nCdS parametrlariga sezilarli ta'sir qiladi: Barrier balandligi 0,32–0,78 eV oralig'ida o'zgaradi, Kontakt qarshiligi $(1,8-6,5) \times 10^{-3} \Omega \cdot \text{sm}^2$, To'g'rilash koeffitsiyenti 10^3-10^4 gacha yetadi. Eng samarali tuzilma In-pSi/nCdS-In bo'lib, minimal yo'qotishlarni ta'minlaydi va omik tok tashilishga yaqin bo'ladi ($\Phi_B \approx 0,35-0,42$ eV, $R_c \leq 2,1 \times 10^{-3} \Omega \cdot \text{sm}^2$). Al-pSi/nCdS-Al tuzilmasida 350–400 °C dagi annealingdan keyin barqaror omik kontakt hosil bo'ladi ($R_c \approx 2,5-3,2 \times 10^{-3} \Omega \cdot \text{sm}^2$, to'g'rilash koeffitsiyenti $(3-5) \times 10^3$). Au-pSi/nCdS-Au tuzilmasida esa to'siqli kontakt hosil bo'ladi ($\Phi_B \approx 0,65-0,78$ eV, $R_c \approx 5,0-6,5 \times 10^{-3} \Omega \cdot \text{sm}^2$). Ag-pSi/nCdS-Ag kontaktlari o'rta parametrga ega ($\Phi_B \approx 0,48-0,58$ eV, $R_c \approx 3,6-$

$4,4 \times 10^{-3} \Omega \cdot \text{sm}^2$) va ftohisoyati $0,42-0,55 \text{ A/Vt}$. Metall-yarimo'tkazgich kontaktlari quyidagi shartlar bilan tavsiflanadi: n-turi uchun: $\Phi_B(n) = \Phi_M - \chi \approx 0$ (omik kontakt), p-turi uchun: $\Phi_B(p) = E_g - (\Phi_M - \chi) \approx 0$, To'siq kontaktlar: n-turi uchun: $\Phi_B(n) = \Phi_M - \chi$, p-turi uchun: $\Phi_B(p) = E_g - (\Phi_M - \chi)$, To'siq orqali tok quyidagi formula bilan tavsiflanadi (3):

$$I = I_s \left(\exp\left(\frac{qU}{kT}\right) - 1 \right) \quad (3)$$


Rekombinatsiyani hisobga olinsa (4):

$$I = I_s \left(\exp\left(\frac{qU}{kT}\right) - 1 \right) + I_s \left(\exp\left(\frac{qU}{2kT}\right) - 1 \right) \quad (4)$$

Strukturani umumiy elektr qarshilik quyidagicha yozish mumkin.

$$R = R_C + R_{pSi} + R_{nCds} + R_T + R_p + R_m \quad (5)$$

Eksperimental ma'lumotlar: In: $\rho_c \approx 1 \times 10^{-5} \Omega \cdot \text{sm}^2$, Al: $\rho_c \approx (1-10) \times 10^{-6} \Omega \cdot \text{sm}^2$, Ag: $\rho_c \approx 1 \times 10^{-6} \Omega \cdot \text{sm}^2$, Au: $\rho_c \approx (1-10) \times 10^{-5} \Omega \cdot \text{sm}^2$. $\rho_c = \rho_{c1} + \rho_{c2}$ ikki komponentli model kontaktlarning haroratga bog'liqligini to'g'ri tavsiflaydi. Minimal qarshilikni Al va In ta'minlaydi, maksimal barqarorlikni esa Au va Ag ta'minlaydi, bu esa optoelektron qurilmalar uchun kontaktlarni optimallashtirish imkonini beradi.




6-rasm. a) SEM yordamida ingichka CdS/Si geterosistemasining n-turi CdS asosidagi yupqa qatlam yuzasi tasviri; b) Element tahlili

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida "pSi/nCdS getero-o'tishlarining elektrofizik va optik xususiyatlariga tashqi ta'sirlar" mavzusida harorat, elektr va boshqa tashqi omillarning getero-o'tish xususiyatlariga ta'siri o'rganilgan. 6-rasmda kremniy asosiga cho'kkan CdS ingichka yupqa qatlamsining morfologiyasi va element tarkibi ko'rsatilgan.

